



YO‘L HARAKATINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA MOMOLAR VA ULARNI HAL ETISH BO‘YICHA TAKLIFLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19632034>

Nazarova Mashxura Saparbayena

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya; *Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o‘limga olib kelgan yo‘l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo‘lib, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta‘minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, yo‘l infratuzilmasini harakat xavfsizligini ta‘minlashning zamonaviy talablariga to‘liq muvofiqlashtirish, ushbu sohadagi qoidabuzarliklarning barvaqt profilaktikasiga yo‘naltirilgan samarali tizimni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, inson omilini istisno qiluvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda.*

Kalit so‘zlar; *yo‘l-transport, chorraha, piyoda, yo‘lovchi, transport, harakat, hudud, yondosh, xavfsizlik orolchasi.*

Tahlil va natijalar; Chorraha deb yo‘llarning o‘zaro bir sathda tutashadigan, kesishadigan va ayiriladigan joyi. Chorraha chegarasi uning markazidan qatnov qismlari oxiridagi qarama-qarshi tomonlarning eng uzoq buriladigan joylarini tutashtiruvchi tasavur qilinadigan chiziqlar bilan aniqlanadi. Yondosh hududlardan chiqish kelish joylari chorraha hisoblanmaydi.

Chapga yoki o‘nga burilayotgan avtotransport haydovchisi kesishayotgan yo‘lning qatnov qismidan o‘tayotgan piyodalarga va velosiped yo‘lkasidan yo‘lni kesib o‘tayotgan harakat qatnashchilariga yo‘l berishi kerak.

Haydovchi tirbandlik sababli majburiy to‘xtab, ko‘ndalang

yo‘nalishdagi transport vositasi harakatlanishiga to‘sqinlik tug‘diradigan bo‘lsa, chorrahaga kirishi taqiqlanadi. Agar to‘xtash chizig‘i yoki 5.33 yo‘l belgisidan o‘tib haydovchiga esa qatnov qismlari kesishmasiga kirishi qatidan taqiqlanadi.

Aylanma harakatlanish chorrahasida harakatlanayotgan transport vositalari aylanaga kirib kelayotgan transport vositalariga nisbatan ustunlikka (imtiyozga) ega.

Chorrahalar ikki turga bo‘linadi:

1. Tartibga solingan.

2. Tartibga solinmagan.

YTH vujudga kelish holatiga qarab, yo‘l bo‘laklarining xavfliligi darajasini aniqlash yuzasidan fikr yuritimiz.



Ziddiyatli vaziyat usuli yordamida, yo‘l bo‘lagining xavflilik darajasini aniqlash uchun avtomobilning harakat oqimini real ko‘cha sharoitida yordamida hamma yo‘l bo‘laklaridagi tezlikning va yo‘nalishning o‘zgarish grafigini chizish kerak. Bu usulda yo‘lning xavflilik darajasini aniqlash avtomobilning u yoki bu holatidagi bo‘ylama va ko‘ndalang manfiy tezlanish qiymati bilan o‘lchanadi.

Ziddiyatli vaziyat soni mavjud yo‘lar uchun kuzatuvlar natijasi asosida aniqlanadi, yangi yo‘larni qurishda esa matematik modelar tuzib topiladi. Kritik holatga keltirilgan ziddiyatli vaziyatlar soni quyidagicha aniqlanadi.

Yangi yo‘l qurilma loyihalarida ziddiyatli vaziyatlar soni 210 dan oshmasligini ta‘minlash kerak. Yo‘lni ta‘mirlash va tuzatish loyihalarida esa ziddiyatli vaziyat soni 310 dan katta bo‘lgan yo‘l bo‘laklarini qayta loyihalash zarur. Yo‘l transport hodisalarining kelib chiqish sabablarining 49 foizi obektiv va 51 foizi subektiv sabablarga ko‘ra sodir bo‘lgan. Obektiv sabablarga foizi quyidagicha

1. Piyodalar o‘tish joylari tashkil etilmaganligi 10,3%
2. Yo‘lni ikkiga ajratib turuvchi to‘siqlar o‘rnatilmaganligi 13,1 %
3. Piyodalar harakatini cheklovchi to‘siq va panjaralar o‘rnatilmaganligi 11,6%
4. Svetafor yoki yo‘l belgilari o‘rnatilmaganligi 2,2 %
5. Veloyo‘laklar tashkil etilmaganligi 3,6%

6. Yo‘l qoplamasi nosozligi 4,1%

7. Boshqa obektiv sabablar 4,6%

Chorrahalar hududlarida harakatni kanalizatsiya qilish eng qulay va xavfsiz trayektoriya bo‘ylab avtomobil va piyodalar oqimini yo‘naltirish orqali ziddiyatli nuqtalar soni va xavfini kamaytirishga mo‘ljallangan. Yo‘nalishlarni kanalizatsiya qilish, haydovchilarning murakkab ko‘rinishdagi chorrahalarda va kesishmada harakatini osonlashtiradi. Bu esa tartibsiz harakatning ziddiyatli nuqtalar va vaziyatlarning kamayishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Kesishmalar bir ish rejimidan ikkinchisiga o‘tish xavfsiz va samarali amalga oshirilishi uchun loyihalashtirilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, kesishish funksiyasiga bog‘liq bo‘lgan marshrutlarni joylashtirish va ajratish alohida ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilishi kerak.

Harakat yo‘nalishiga kelsak, harakatning qat‘iy va o‘zgaruvchan yo‘nalishi bo‘lgan chiziqlar o‘rtasida farqlash kerak. Muqobil bo‘laklar yo‘nalishli o‘qlar bilan belgilanmasligi kerak.

Aholi yashash joylarida va ularga kelishdagi yo‘l qismlarida hisobiy harakat miqdori sutkasiga 4000 keltirilgan birlik va undan ortiq bo‘lsa, yo‘l poyi chegarasidan tashqariga piyodalar uchun yo‘laklar qurilishi kerak. Yo‘laklarni “SNiP 2.07.01-89” talablariga muvofiq loyihalash zarur.

Avtomobil yo‘li aholi punktidan o‘tganda piyodalar uchun yo‘lak qurilishi



ko'zda tutiladi. Yo'lak enini ko'chani darajasiga, qurilish harakteriga, yo'lovchilarning soniga, hamda yo'lakda joylashgan machtalarning tayanchlari va daraxtlar mavjudligiga qarab belgilanadi. Yo'lak enini hisoblashda yo'lovchining harakatlanishi uchun 0,75 m tasma kerakligi ko'zda tutiladi.

Shahar ko'chalarning umumiy eniga qarab turib yo'laklar quyidagicha joylashtirilishi mumkin: qatnov qismining yonida, ko'kalamzorlashtirilgan tasmalar oralig'ida, qatnov qismidan va binolardan ajralgan holda, binolar yonida, qatnov qismidan ko'kalamzorlashtirish tasmalari joylashtirib ajratilgan holda va h.k.

Yo'laklar enini ko'cha va yo'llarning darajasiga qarab hisoblanadi, lekin 3.2-jadvalda ko'rsatilganidan kam bo'lmasligi kerak.

Yo'lak enini, kerak bo'lgan hollarda, quyidagi formula orqali hisoblash mumkin;

Tasmalar soni hisobiy davrda kutilayotgan piyodalar harakat miqdoriga NP piyoda/soat va bitta yo'lak tasmalarning RP (piyoda/soat) o'tkazish qobiliyatiga qarab aniqlanadi. Hozirgi katta va yirik shaharlar markazida piyodalarning harakat xavfsizligini to'la ta'minlash maqsadida piyodalar uchun alohida ko'chalar ajratilgan.

Aholi punktlarida harakatni tashkil qilishda va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida, shuningdek, bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining

oldini olish maqsadida muallif ilmiy rahbarligida piyodalar uchun yo'l to'sig'ini o'rnatish tavsiya qiladi.

Hulosa va takliflar . Yo'l harakatlarini tashkil etishni takomillashtirishning asosiy maqsadi, ko'chalarni to'g'ri va samarali ravishda taqsimlash va o'tkazishdir. Bu trafikni tez va sodda harakat ettirish, xavfsizlikni ta'minlash va avtomobil yo'llarini o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish. Yo'l harakatlarini tashkil etishning bir qatori ma'lumotlari, chora tasnifida amal oshirishdur. Bu, yo'llar va ko'chalarni belgilash, burilishlar va tozalashlar bilan bog'liq umumiy talablarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Keyin ko'chalarni tozalash tartibini belgilash va ijro etish jarayonini boshlash mumkin.

Chorahada xizmat ko'rsatuvchilari uchun ta'sir ko'rsatuvchi omillar juda muhimdir. Ishni boshlashdan oldin, texnika xavfsizligi yo'riqnomasi va xavfsizlik qoidalari bilan tanishuv juda muhimdir. Jismoniy zararli holatlarga e'tibor berish kerak va ish jarayonida ishlatiladigan texnik vositalardan himoya qilish uchun kerakli ko'rsatmalar keltirilishi kerak. Bu, inson salomatligini himoya qilishga yordam beradi. Bu omillar odamlarning xatti-harakatlarini tartibga solish, mashinalarni, qurilish inshootlarini va jihozlarini joylashtirish va sig'im nuqtalaridan xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.04.2022 172-sonli "Yo'l harakati qoidalari" to'g'risidagi qarori.
2. Azizov X.Q. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. T., "Fan va texnologiyalar", 2016 - 246 bet.
3. Azizov X.Q "Yo'llarda xavfsiz harakatlanish asoslari" o'quv qo'llanma "TAYP", 2004 -71 bet.
4. MKN 15-2007 "Pravila ucheta i analiz dorojno-transportnix proisshestviy na avtomobilniy dorogax" Avtodorojny nauchno-issledovatel'skiy institut GAK "Uzavtoyo'l". T., 2007 - 26 bet.
5. Avtotransport vositalari. Texnika holatiga xavfsizlik talablari. 2005-279 bet., OzDo'st 1057-2004. Rasmiy nashr "Uzstandart", 2004 - 30 bet.
6. Avtotransport vositalari. Texnik ko'rik. Nazorat usullari.O'zDSt 1058-2004. Rasmiy nashr "Uzstandart", 2004 - 33 bet.